



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yil yanvar-oktabr oyi




**JISMONIY VA
YURIDIK
SHAXSLARNING
MUROJAATLARI**

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasiga 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan 95 ta (*o'tgan yilning shu davrida 127 ta*) murojaatlar kelib tushgan.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning 22.1 foizi (21 ta) jismoniy shaxslar va 77.9 foizi (74 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Murojaatlarning asosiy qismi – Angor, Boysun, Jarqo'rg'on, Denov, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Muzrabot, Termiz, Sherobod, Sho'rchi, Sariosiyo tumanlari Termiz.sh hamda Toshkent viloyatidan kelib tushgan.



■ Jismoniy shaxslar ■ Yuridik shaxslar

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri
kelib tushgan
yozma murojaatlar**

46

48.4 %

**Boshqarma
rahbariyatining
shaxsiy va sayyor
qabullaridagi og‘zaki
murojaatlar**

42

44.2 %

**Boshqarmaning
ishonch telefoni
orqali og‘zaki
murojaatlar**

7

7.4 %

Viloyati statistika boshqarmasiga 2022- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslardan 95 ta murojaatlar kelib tushgan. Ulardan, 46 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 42 tasi boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og‘zaki murojaatlar hamda 7 tasi boshqarmaning ishonch telefoni orqali kelib tushgan murojaatlarini tashkil etgan.



Murojaatlar: mazmun-mohiyati bo'yicha

13 tasi (13.7 %) Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish xaqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish





31 tasi (32.6 %) Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish so'ralgan

8 tasi (8.4 %) Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan arizalar





2 tasi (2.1 %) Inflyatsiya darajasi to'g'risida so'ralgan murojaatlar

5 tasi (5.3 %) Faoliyat turini o'zgartirishni so'rab berilgan arizalar




3 ta (3.2%) Hisobotni qayta topshirish bo'yicha so'ralgan murojaatlar

7 ta (7.4 %) KTYaDR ma'lumotlari so'rab berilgan arizalar




8 ta (8.4 %) Boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlar

8 ta (8.4 %) Qurilish pudrat tashkilotlari elektron reytingiga kirish bo'yicha so'ralgan murojaatlar



10 ta (10.5 %) e.Stat dasturining faoliyati yuzasidan so'ralgan murojaatlar

Murojaatlar: Hududlar bo'yicha tahlili




- | | | | |
|------------------|---------------|--------------|----------------------|
| ■ Angor | ■ Bandixon | ■ Boysun | ■ Denov |
| ■ Jarqo'rg'on | ■ Qumqo'rg'on | ■ Qiziriq | ■ Sariosiyo |
| ■ Oltinsoy | ■ Muzrabot | ■ Termiz.t | ■ Uzun |
| ■ Sherabod | ■ Sho'rchi | ■ Termiz. Sh | ■ Boshqa hududlardan |
| ■ MDH davlatlari | | | |

Murojaatlar: Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili

T/r	Hudud nomlari	2022- yilda yanvar-oktabr oylarida kelib tushgan murojaatlar soni	2021- yilda yanvar-oktabr oylarida kelib tushgan murojaatlar soni
1	Angor	7	7
2	Bandixon	0	5
3	Boysun	13	7
4	Denov	4	15
5	Jarqo'rg'on	3	9
6	Qumqo'rg'on	7	4
7	Qiziriq	4	4
8	Sariosiyo	4	17
9	Oltinsoy	4	5
10	Muzrabot	3	2
11	Termiz	6	11
12	Uzun	3	10
13	Sherobod	7	3
14	Sho'rchi	3	1
15	Termiz shahri	23	23
16	Boshqa hududlardan	1	4
17	MDH davlatlari	3	-

Murojaatlarni ko'rib chiqish holati



■ Ijobiy hal etildi ■ Tushuntirildi



Eslatib o'tamiz:

- O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch
telefoni:

- Boshqarma
- (76) 225-65-73, 225-65-70

Ishonch
telefoni:

- Davlat statistika qo'mitasi
- (71) 202-81-80

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi. Siz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining 2-bo'limidagi Davlat qo'mitalari ro'yxatidan Davlat statistika qo'mitasini tanlab, o'z murojaatingizni yuborishingiz mumkin.

Viloyat statistika boshqarmasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi: T. Sultonova (76) 225-65-73